

ISSN k181-9505
Doi Journal 10.k6739/k181-9505

Philosophy and Life

FALSAFA VA HAYOT • ФИЛОСОФИЯ И ЖИЗНЬ

2026 №2 (33)



ISSN k181-9505

Doi Journal 10.k6739/k181-9505

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi

Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi

O'zbekiston falsafa jamiyati

Национальный Университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

Международный научно-исследовательский центр Имам Бухари

при Кабинете Министров Республики Узбекистан

Философское общество Узбекистана

The National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

Imam Bukhari International Research Center under the Cabinet of Ministers
of the Republic of Uzbekistan

Philosophical Society of Uzbekistan

FALSAFA VA HAYOT

XALQARO JURNAL

ФИЛОСОФИЯ И ХИЗНЬ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ

PHILOSOPHY AND LIFE
INTERNATIONAL JOURNAL

2026 №2 (33)

Jurnal bir yilda 4 marta nashr qilinadi.

Журнал выходит 4 раза в год.

The journal is published 4 times in a year.



Toshkent

“Falsafa va hayot” xalqaro jurnal
“Философия и жизнь” международный журнал
“Philosophy and Life” international journal

Tahrir kengashi Abdildina, R.J. – Qozog‘iston FA akademigi, falsafa fanlari doktori, professor Mamedzade, I.R. – Azarbayjon FA Falsafa va sotsiologiya instituti direktori, falsafa fanlari doktori, professor Skarantino, L.M. – DSc, professor, (Italiya) Smirnov, A.V. – Rossiya FA akademigi, Rossiya falsafa jamiyati, falsafa fanlari doktori, professor (Rossiya) Seytaxmedova N.L. – Qozog‘iston FA akademigi, falsafa fanlari doktori, professor Tsuy Veyxan – Xitoy ijtimoiy fanlar Akademiyasi vitse-prezidenti, DSc, professor, (Xitoy) Chumakov, A.N. – Rossiya FA Falsafa instituti professori, falsafa fanlari doktori (Rossiya) Muassislar: Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy - tadqiqot markazi O‘zbekiston falsafa jamiyati Expert lawyers MCHJ Elc.uz Ro‘yxatga olinganligi haqidagi 1175 sonli guvohnoma O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 20.02.2018 yilda berilgan.	Bosh muharrir: Shermuhamedova, N.A. – f.f.d., professor (O‘zbekiston) Bosh muharrir o‘rinbosari: Aslanova, R. – f.f.d., professor (Azarbayjon) Mas’ul muharrir: Muhamedova, Z.M. – f.f.d., professor (O‘zbekiston) Tahrir hay’ati: Allahyarova, T., – f.f.d., professor (Azarbayjon) Andirjanova, G.A., – s.f.d., professor (Qozog‘iston) Abasov, A.S., –f.f.d., professor (Azarbayjon) Axamer, G – f.f.d., professor (Avstriya) Buzarinejad, Y. – f.f.d, professor (Eron) Bilalov, M.I., – f.f.d., professor (Rossiya) Gabitov, T.X., – f.f.d., professor (Qozog‘iston) Gezalov, A.A., – f.f.n., professor (Rossiya) Kerimov, E. – f.f.d., professor (Azarbayjon) Kurmangalieva, G. K., – f.f.d., professor (Qozog‘iston) Kurbonova, L.A. – f.f.d.DSc, dotsent (O‘zbekiston) Lazarevich, A.A. – f.f.d., professor (Belorus) Olatunji, Feliks – PhD, dotsent (Nigeriya) Paxruddinov, Sh.I. – s.f.d., professor (O‘zbekiston) Pardayev, S. – falsafa doktori (PhD), (O‘zbekiston) Sergeev, M.Y., – professor (AQSh) Sagikizi, A. – f.f.d., professor (Qozog‘iston) Tulenova, G. J – f.f.d., professor (O‘zbekiston) Tesdelen, Vefa, – f.f.d., professor (Turkiya) Tyukmaeva A.M. – falsafa doktori PhD (O‘zbekiston) Hakimov N. H. – f.f.d., professor (O‘zbekiston) Xudoydodzoda, F.B., – f.f.d., professor (Tojikiston) Xudoyberganov, R. – f.f.d.DSc, (O‘zbekiston) Mahmadizoda, N. – f.f.d., professor (Tojikiston) Naushabaeva, A. H – falsafa doktori (PhD), professor (Turkiya) Urmanbetova, J.K., – f.f.d., professor (Qirg‘iziston) Chjan Baychun, – f.f.d., professor (Xitoy) Sharipova E.K. – f.f.d., professor (Qirg‘iziston) Ilmiy kotib: Xidirov, M.T. – falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent (O‘zbekiston) Musahhihlar: Qodirov J. – (O‘zbekiston) Po‘latov A. – (O‘zbekiston)
--	--

MUNDARIJA

SIYOSAT VA JAMIYAT FALSAFASI

Inaqov Qudratjon Qadirjonovich	MEDIASAVODXONLIK VA MA'NAVİY REFLEKSIYANING YOSHLAR MAFKURAVIY IMMUNITETINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY BILISH MEXANIZMLARI SIFATIDAGI AHAMIYATI	9-20
Sapayev Valisher Odilbek o'g'li	RAQAMLI GEOSIYOSIY MAKONNING MAFKURAVIY MUNOSABATLAR TIZIMIDAGI O'RNI	21-35
Seytalieva Nurzada Tugolbekovna	MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARIDA MILLIY MAFKURA TRANSFORMATSIYASI VA UNING IJTIMOY ONGGA TA'SIRI	36-45
Usmonov Saidikromxo'ja Saidalieвич	KIBERZO'ROVONLIK VA KIBERBULLINGNING IJTIMOY VOQELIK SIFATIDAGI MOHIYATI	46-56

TA'LIM VA FAN FALSAFASI

Seytaxmedova Natalya Lvovna	DINIY TA'LIMNI RAQAMLASHTIRISH VA YOSHLARNING MA'NAVİY-AXLOQIY QADRIYATLARINI SHAKLLANTIRISH	57-65
Qurbonova Lola Abdixodimovna	JAMIYAT TARAQQIYOTIDA ELITAR TARBIYANING IJTIMOY-FALSAFIY ASOSLARI VA UNING INTELLEKTUAL ELITA SHAKLLANISHIDAGI ROLI	66-76
Xidirov Mustafo Toyirqulovich	ZAMONAVIY FAN TARAQQIYOTIDA BILIM VA FAOLIYATNING O'ZGARUVCHANLIGI VA DAVR RUHI BILAN INTEGRATSIYASI	77-86

FALSAFA TARIXI VA TARIX FALSAFASI

Oni Maykl Olatunji	SARTR GUMANIZMI AFRIKADA MADANIY IDEALLAR TRANSFORMATSIYASI UCHUN IMPERATIV SIFATIDA	87-98
Mayliyev Azamat Farxod o'g'li	STRATEGIK TAFAKKUR VA IJTIMOY MAS'ULIYATNING IJTIMOY-FALSAFIY ASOSLARI	99-109

DUNYO MADANIYATI VA DINIY AN'ANALAR

Ademola, Julius Olajide	GERASALIK JIN CHALINGAN KISHINING SHIFO TOPISHI GERMENEVTIKASI: CHRIST APOSTOLIC CHURCH, IBADAN, NIGERIYA MISOLIDA	110-122
Akinnavo Yetunde Abolaji, Deji Isaac Ayegboyin	NIGERIYADAGI AFRIKA PENTEKOSTALIZMIDA IDENTIFIKATSIYANING MA'NAVİY GRAMMATIKASI	123-136
Ganjiyev Shuxratjon Jurayevich	HARBIY XIZMATCHILAR MA'NAVİY DUNYOQARASHIDA MILLIY QADRIYATLAR VA GLOBAL OMMAVIY MADANIYAT TA'SIRINING IJTIMOY-FALSAFIY XUSUSIYATLARI	137-149
Tulyayev Avazbek Ilhomovich	SUN'IY INTELLEKT VA ZAMONAVIY JAMIYAT AXLOQIY ONGGINING TRANSFORMATSIYASI	150-160

SIYOSAT VA JAMIYAT FALSAFASI / ФИЛОСОФИЯ ПОЛИТИКИ И ОБЩЕСТВА / PHILOSOPHY OF POLITICS AND SOCIETY

UDK: 316.624

 10.5281/zenodo.20717400

Usmonov Saidikromxo'ja Saidalievich
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Mirzo Ulug'bek nomidagi
O'zbekiston milliy universiteti mustaqil tadqiqotchisi
e-mail: usmonovsaidikromxoja@gmail.com

KIBERZO'ROVONLIK VA KIBERBULLINGNING IJTIMOY VOQELIK SIFATIDAGI MOHIYATI

Annotatsiya. Bugungi davrda kiberzo'rovonlik va kiberbulling zamonaviy axborotlashgan jamiyatda shakllanayotgan ijtimoiy voqelik bo'lib, raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlarning keng ommalashuvi natijasida yuzaga kelayotgan virtual zo'rovonlik shakllari, ularning kelib chiqish omillari hamda shaxs, ayniqsa yoshlar ruhiyati va ijtimoiy munosabatlariga ko'rsatadigan ta'siri bilan bog'liq jarayondir. Mazkur jarayonda, kiberbullingning ijtimoiy-psixologik, huquqiy va ma'naviy jihatlari, uning jamiyatdagi salbiy oqibatlari hamda oldini olishning samarali mexanizmlari muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, ushbu maqolada kiberzo'rovonlik va kiberbullingning ijtimoiy voqelik sifatidagi mohiyati, axborot xavfsizligini ta'minlash va yoshlarning ma'naviy hamda huquqiy savodxonligini oshirish orqali kiberzo'rovonlikka qarshi kurashishning ustuvor yo'nalishlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: kiberzo'rovonlik, kiberbulling, kibertahdidlar evolyutsiyasi, axborot urushi, mafkuraviy ta'sir, axborot xavfsizligi, axborot muhiti, virtual muhit.

KIRISH

XXI asrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi va internet makonining kundalik hayotga chuqur kirib borishi jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning yangi shakllarini vujudga keltirdi. Raqamli platformalar insonlar o'rtasidagi muloqotni tezkor va qulay qilgani holda, u bilan bir qatorda yangi turdagi ijtimoiy muammolarni ham yuzaga chiqardi. Ana shunday muammolardan biri kiberzo'rovonlik va kiberbulling bo'lib, ular virtual makonda sodir etiladigan tajovuzkor xatti-harakatlar sifatida shaxsning qadr-qimmati, ruhiy salomatligi va ijtimoiy faolligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu ma'noda, kiberzo'rovonlik va

kiberbulling nafaqat alohida shaxslar o'rtasidagi nizolar, balki zamonaviy jamiyatning ijtimoiy voqeligi sifatida ham namoyon bo'lmoqda. Ular ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar, onlayn o'yinlar va boshqa raqamli platformalar orqali haqorat qilish, tahdid qilish, yolg'on ma'lumot tarqatish, shaxsiy hayot daxlsizligini buzish hamda kamsituvchi kontentni ommalashtirish kabi ko'rinishlarda uchraydi. Mazkur hodisalar internet foydalanuvchilarining keng qatlamini qamrab olishi va ularning oqibatlari uzoq muddatli bo'lishi bilan an'anaviy zo'ravonlik shakllaridan farq qiladi.

Ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan, kiberzo'rovonlik raqamli makonda shakllangan kommunikativ munosabatlarning salbiy ko'rinishi bo'lib, u axloqiy me'yorlar, huquqiy tartibot va ijtimoiy mas'uliyat masalalari bilan uzviy bog'liqdir. Ayniqsa, yoshlarning internetdan faol foydalanishi sharoitida kiberbulling ularning ma'naviy kamoloti, psixologik barqarorligi va ijtimoiylashuv jarayoniga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli ushbu hodisani faqat psixologik yoki texnologik muammo sifatida emas, balki murakkab ijtimoiy fenomen sifatida o'rganish dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi.

MATERIALLAR VA METODLAR.

Ushbu maqolani tayyorlashda kiberzo'rovonlik va kiberbullingning ijtimoiylashuviga bevosita ta'sir ko'rsatgan asosiy nazariyalar, metodologik paradigmalar va falsafiy-ilmiy maktablarning asosiy manbalari tahlil qilishga harakat qilindi. Material sifatida XX asr oxiri va XXI asr boshlarida kiberzo'ravonlikka qarshi kiberxavfsizlikni ta'minlashning mafkuraviy ahamiyatini o'rganishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar bilan shug'ullangan mashhur olimlarning fundamental ishlari asosiy mezon sifatida tanlandi. Xususan, Y.Kasperskiy [Е.Касперский, 2018. с. 352].

kibertahdidlarning evolyutsiyasi va ularga qarshi kurashish mexanizmlarini amaliy jihatdan asoslab beradi. A.Smironov va I.Panarin [И.Панарин. 2003. с.549.] axborot urushi, mafkuraviy ta'sir va kiberxavfsizlik o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qiladi. I.A.Fedorov va Y.N.Lapshinalarning "Kiberxavfsizlik milliy mafkura tarkibiy elementi sifatida" [И.А. Федоров, Й.Н. Лапшина. 2020. с. 27-36]. ilmiy ishlarida Rossiyada kiber makondagi axborot urushi, mafkuraviy tahdidlar va davlat mafkurasiga salbiy ta'sir, jamoaviy ongni himoya qilishning innovatsion usullari haqida yoritib o'tadi. Shu bilan birga, A.Mo'minov o'zining "Kiberzo'ravonlik va uning ijtimoiy-axloqiy oqibatlari" [И.Панарин. 2003. с.549.] monografiyasida yoshlar ongida kiberbullingning ta'siri, milliy profilaktika, axborot madaniyati va mafkuraviy immunitet shakllanishining uslubiy asoslarini ilmiy asoslab beradi. D.Ismoilova "Axborot xavfsizligi va mafkuraviy barqarorlik masalalari" [D.Ismoilova. 2022. b. 23-38.] asarida kiberxavfsizlik, yoshlar va oila, davlat va jamoatchilikning vazifalari, axborot makonida milliy immunitet masalalari chuqur o'rganiladi. A.Abduqodirov, Sh.Qurbonov, N.Yuldashevlar axborot xavfsizligi, mafkuraviy tahdidlar va yoshlarni himoya qilish masalalarini kompleks tahlil qilinadi. Bu kabi olimlarning tadqiqotlarida kiberxavfsizlikning ijtimoiy-falsafiy va mafkuraviy jihatlari ochib beriladi. Maqolada kiberzo'rovonlik

va kiberbullingning ijtimoiylashuvi, uning o'ziga xos mafkuraviy jihatlari, unga oid turli xil yondashuvlar ilmiy asosda tahlil qilish, Y.Kasperskiy, A.Smirnov, I.Panarin, I.A.Fedorov Y.N.Lapshina kabi olimlarning qarashlarini qiyosiy tahlil etish, kiberzo'ronlik va kiberbullingning kabi tushunchalarning o'zaro aloqalarni asoslash, ularning jamiyat hayotiga salbiy ta'sirini ochib berish uchun tarixiy-falsafiy komparativ (qiyosiy) tahlil, sistemali yondashuv, dialektika, analiz, sintez, umumlashtirish metodlaridan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Kiberzo'ronlik tushunchasi ilmiy adabiyotlarda XX asr oxiri va XXI asr boshlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi hamda internet tarmoqlarining ommaviy ravishda kengayishi natijasida shakllana boshladi. Mazkur davrda virtual kommunikatsiya insonlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning muhim shakllaridan biriga aylanib, muloqot, ta'lim, mehnat va ko'ngilochar faoliyatning katta qismi raqamli makonga ko'chdi. Buning natijasida internet inson hayotini yengillashtiruvchi vosita sifatida namoyon bo'lishi bilan birga, unda tajovuzkor xatti-harakatlar, tahdid, haqorat va ta'qibning yangi ko'rinishlari ham yuzaga keldi. Dastlab ilmiy tadqiqotlarda kiberzo'ronlik an'anaviy zo'ronlikning virtual muhitdagi davomchisi sifatida talqin etilgan bo'lsa, keyinchalik uning mustaqil ijtimoiy hodisa ekanligi e'tirof etila boshlandi. Chunki raqamli texnologiyalar zo'ronlikning makon va vaqt chegaralarini kengaytirib, tajovuzkor harakatlarning tezkor tarqalishi, anonimlik imkoniyati hamda cheklanmagan auditoriyaga yetib borishini ta'minladi. Shu sababli kiberzo'ronlikning ta'siri ko'pincha jismoniy makonda sodir bo'ladigan zo'ronlikdan ham uzoq davom etuvchi psixologik va ijtimoiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Raqamli muhitning inson ruhiyatiga ta'siri masalalari amerikalik sotsiolog va psixolog Sherri Tyorkl tomonidan ham chuqur tahlil qilingan. U virtual kommunikatsiya inson shaxsiyatining yangi shakllarini yuzaga keltirishini ta'kidlab, quyidagicha yozadi: "Onlayn muhitda inson o'z shaxsiyatini qayta shakllantirish imkoniga ega bo'ladi, bu esa uning ijtimoiy mas'uliyatini susaytirishi mumkin" [S.Turkle. 1995. p. 178.]. Kiberbullingning psixologik asoslarini tushinishda muhim ahamiyatga ega, chunki virtual muhitda shaxsiy identifikatsiyaning o'zgarishi agressiv xulq-atvorni rag'batlantiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi.

Raqamli jamiyat nazariyasini ishlab chiqqan ispaniyalik sotsiolog, professor Manuel Kastelsning ta'kidlashicha axborot tarmoqlarining kengayishi ijtimoiy munosabatlarning yangi tizimini shakllantirishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, "Tarmoq jamiyatida kommunikatsiya asosiy ijtimoiy resursga aylanadi, bu esa axborot ta'sirlarining kuchayishiga olib keladi" [S.Turkle. 1995. p. 178.].

Bu holat kiberbullingni faqat shaxsiy muammo sifatida emas, balki ijtimoiy jarayon sifatida qarash zarurligini ko'rsatadi.

Zamonaviy xalqaro tadqiqotlar kiberbullingning keng tarqalgan ijtimoiy muammo ekanligini ko'rsatmoqda. Masalan, YUNESKO (2021) ma'lumotlariga

ko'ra, jahon bo'yicha o'quvchilarning taxminan 32 % turli shakldagi bullingga duch kelgan bo'lib, ularning sezilarli qismi aynan raqamli muhitda amalga oshirilgan. Shuningdek, Cyberbullying Research Center (2022) tadqiqotlariga ko'ra, "AQSHda o'quvchilarning 36,5 % kiberbulling holatlarida ishtirok etgan yoki uning qurboni bo'lgan" [J.Patchin, S.Hinduja. 2022. p. 14.]. Shu sababdan kiberbullingning global miqyosda tarqalayotgan ijtimoiy xavf ekanligini ko'rsatdi. Bu esa uni faqat psixologik muammo emas, balki ijtimoiy-falsafiy tahlilni talab qiluvchi murakkab hodisa sifatida o'rganish zarurligini anglatadi.

Kiberbulling tushunchasini ilmiy jihatdan chuqur tahlil qilishda MDH davlatlari olimlarining tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega. Ayniqsa, raqamli sotsializatsiya jarayonlarini o'rganishda rus olimlari tomonidan amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar kiberbullingning ijtimoiy va psixologik mexanizmlarini tushunishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Rossiyalik mashhur psixolog G.U.Soldatova raqamli muhitda shaxs ijtimoiylashuvi jarayonlarini tahlil qilar ekan, kiberbullingni raqamli sotsializatsiyaning salbiy oqibatlaridan biri sifatida baholaydi. Uning ta'kidlashicha, "Raqamli muhitda ijtimoiylashuv jarayonida bolalar va o'smirlar yangi kommunikatsiya shakllarini o'zlashtiradilar, ammo bu jarayon nazoratsiz kechgan taqdirda agressiv xulq-atvorning shakllanishiga olib kelishi mumkin" [Г.У. Солдатова. 2018. с.42-46]. Xususan, uning rahbarligida 2019-2021-yillarda Rossiya Federatsiyasida o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, 12-17 yoshli o'smirlarning 28 % kamida bir marta kiberbulling holatlariga duch kelganligi aniqlangan. Ushbu ko'rsatkichlar kiberbullingning raqamli muhitda keng tarqalayotgan ijtimoiy muammo ekanligini tasdiqlaydi.

Shuningdek, MDH mamlakatlarida olib borilgan tadqiqotlar kiberbullingning psixo-ijtimoiy oqibatlarini ham ko'rsatib beradi. Masalan, Rossiya Federatsiyasida o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, kiberbulling qurbonlarining 41 % yuqori darajadagi tashvishlanish holati kuzatilgan. Bu holat kiberbullingning nafaqat ijtimoiy, balki psixologik tahdid sifatida ham namoyon bo'lishini ko'rsatadi. MDH olimlari tomonidan amalga oshirilgan mazkur tadqiqotlar kiberbullingning raqamli muhitdagi ijtimoiy munosabatlarga jiddiy ta'sir ko'rsatayotganini tasdiqlaydi. Bu esa mazkur hodisani faqat axborot texnologiyalari sohasi muammosi sifatida emas, balki ijtimoiy-falsafiy tahlilni talab qiluvchi murakkab jarayon sifatida ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi.

O'zbekistonda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida internet foydalanuvchilar soni keskin oshdi va bu holat ijtimoiy munosabatlarning yangi shakllarini yuzaga keltirdi. Shu bilan birga, virtual muhitdagi agressiv xatti-harakatlar va axborot xavfsizligi muammolari ham dolzarb ahamiyat kasb eta boshladi. Bu jarayon milliy olimlar tomonidan ham ilmiy jihatdan o'rganila boshladi.

O'zbek faylasufi, akademik N.J.Jo'rayev axborot jamiyatining shakllanishi jarayonini tahlil qilib, raqamli muhit inson ma'naviyatiga kuchli ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. Uning fikricha: "Axborot makonida yuzaga kelayotgan yangi ijtimoiy munosabatlar inson ongi va qadriyatlar tizimiga bevosita ta'sir

ko'rsatadi, bu esa ma'naviy barqarorlikni ta'minlashni dolzarb vazifaga aylantiradi" [N.Jo'rayev. 2016. b.54.]. Ushbu fikr zamonaviy axborot jamiyatining murakkab va ko'p qirrali xususiyatini chuqur ifodalaydi. Haqiqatan ham, bugungi globallashuv va raqamlashtirish davrida axborot makoni insonning dunyoqarashi, ijtimoiy qarashlari hamda qadriyatlar tizimini shakllantiruvchi asosiy omillardan biriga aylandi.

A.V.Manaylo fikricha: "Axborot muhiti inson ongini egallash uchun kurash maydoniga aylanadi, bunda ta'sirning asosiy obyekti sifatida uning e'tiqodlari, qadriyatlari va identifikatsiyasi namoyon bo'ladi" [A.B. Манойло. 2003. с. 62.]. Bu yerda axborot makoni passiv muhit emas, balki ongni shakllantirish ustidan faol raqobat olib boriladigan strategik maydon sifatida talqin qilinadi. Uning bu yondashuvi axborot makonini klassik kommunikatsiya modeli doirasidan chiqarib, uni ontologik va siyosiy kuch maydoni sifatida ko'rsatadi. Ya'ni, masala faqat axborot uzatish yoki qabul qilishda emas, balki insonning ichki dunyosini — uning ishonchlari, qadriyatlari va "men" tasavvurini shakllantirishda katta ta'sir qiladi.

Bugungi davrda yoshlar zamonaviy axborot muhitining eng faol va shu bilan birga eng sezgir qatlamini tashkil etadi. Raqamli texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar va global kommunikatsiya tizimlarining kengayishi natijasida ularning dunyoqarashi, qadriyatlari hamda ijtimoiy identifikatsiyasi tobora ko'proq axborot oqimlari ta'sirida shakllanmoqda. Shu jihatdan, axborot muhitida yuzaga kelayotgan turli g'oyaviy, madaniy va mafkuraviy ta'sirlar yoshlar ongida murakkab transformatsion jarayonlarni yuzaga keltiradi. Ilmiy adabiyotlarda bu holat bevosita axborot xavfsizligi va ijtimoiy barqarorlik bilan bog'lanadi. V.V.Ilyin "yoshlarni axborot ta'siriga eng ochiq ijtimoiy guruh sifatida tavsiflab, ularning qadriyatlar tizimi va xulq-atvor modellari aynan axborot muhitida shakllanishini ta'kidlaydi" [B.B. Ильин. 2012. с. 84.]. G.G.Pochepsov esa "axborot ta'sirining asosiy yo'nalishi sifatida aynan yosh avlodning ongini shakllantirishni ko'rsatadi" [Г.Г.Почепцов. 2000. с. 56.], bu jarayonni zamonaviy "axborot urushlari"ning muhim elementi sifatida talqin qiladi.

Mazkur yondashuvlardan kelib chiqib aytganda, axborot makoni faqat kommunikativ maydon emas, balki ongni shakllantiruvchi va boshqaruvchi ijtimoiy-falsafiy muhitdir. Shuningdek, yoshlarning axborot muhitidagi turli ta'sirlarga duch kelishi sharoitida ularning ma'naviy immunitetini shakllantirish nafaqat pedagogik yoki madaniy vazifa, balki jamiyat barqarorligi va milliy xavfsizlikning muhim strategik shartidir. Bu jarayon shaxsning ongli tanlovi, tanqidiy tafakkuri va qadriyatlar tizimining mustahkamligi orqali amalga oshadi.

O'zbekistonlik tadqiqotchi olim Sh.Q.Qurbonov axborot xavfsizligi masalalarini tahlil qilar ekan, kiber makondagi tahdidlarning turlarini o'rganish zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra, zamonaviy axborot muhitida xavfsizlikni ta'minlash nafaqat texnik choralarni, balki ijtimoiy va ma'naviy mexanizmlarni ham talab qiladi. Bu holat kiberbullingning kompleks yondashuv asosida o'rganilishi zarurligini ko'rsatadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasida raqamli muhit rivojlanishi bo'yicha rasmiy ma'lumotlar ham kiberbulling muammosining dolzarbligini tasdiqlaydi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi

Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yil holatiga mamlakatda internet foydalanuvchilar soni 31 milliondan ortiq bo'lgan. Bu raqam internet muhitining jamiyat hayotidagi o'rnini tobora ortib borayotganini ko'rsatadi.

Kiberxavfsizlik - kiber muhitni himoya qilish uchun foydalaniladigan asbob-uskunalar, strategiyalar, xavfsizlik tamoyillari, xavfsizlik kafolati, risklarni boshqarishga yondashuvlar, harakatlar, treninglar, sug'urta va texnologiyalar, tashkilot va foydalanuvchilar resurslari hisoblanadi. Kiberxavfsizlik deyilganda tashkilotning resurslari yoki foydalanuvchilarga tegishli kiber tahdidlarga qarshi xavfsizlik xususiyatlarini saqlab qolish va himoya qilishni nazarda tutadi.

Ma'lumotlar muhofazasi va ma'naviy-axloqiy barqarorligi kiberxavfsizlikni nafaqat raqamli tizim va axborotlarning texnik muhofazasi, balki jamiyat va shaxsning axborot makonida erkinligi, ma'naviy va axloqiy barqarorligini ta'minlashga qaratilgan keng tushuncha. "Xalqaro tajribada kiberxavfsizlik davlat xavfsizligi, milliy mafkura va axborot madaniyati tizimining ajralmas qismi sifatida qaraladi" [S.Bauman, D.Cross, J.Walker. 2012. p.310.]. Taniqli olimlar I.A.Fedorov va E.N.Lapshina asarlarida qayd etilishicha: "kiberxavfsizlikning zamonaviy mohiyati nafaqat axborot tizimlarini himoya qilish, balki jamiyatning mafkuraviy immunitetini shakllantirish, axborot urushi va manipulyatsiyalarga qarshi samarali profilaktika tizimi yaratish bilan chambarchas bog'liq" [И.А.Федоров, Е.Н. Лапшина. 2020. с.232.] ekanligi namoyon bo'ladi.

Bugungi global axborot muhitida yolg'on axborot, dezinformatsiya, shaxsiy ma'lumotlardan suiiste'mol qilish, shaxsiyatni yo'qotish, onlayn manipulyatsiya va mafkuraviy tahdidlar — jamiyat va davlatning faqat huquqiy emas, ma'naviy, madaniy va falsafiy immunitetini zaiflashtiruvchi omillardir. Shuning uchun ham Yevropa Ittifoqi va YUNESKO hisobotlarida ham kiberxavfsizlikni ta'minlashda mafkuraviy va axloqiy yondashuvlar ustuvor ekani alohida ta'kidlangan.

Konseptual tahlil va milliy modellar haqida to'xtalar ekanmiz, milliy va xalqaro ilmiy tajriba kiberzo'ravonlikka qarshi samarali kurashish uchun quyidagi konseptual yondashuvlarni ta'kidlash joiz: kiber makonda axborot va ma'naviy xavfsizlikka kompleks yondashuv, mafkuraviy immunitet va axborot madaniyatini shakllantirish, milliy qadriyatlar va ma'naviy barqarorlik modelini ishlab chiqish, jamoatchilik va ta'lim muassasalarida kiberzo'ravonlikka qarshi profilaktika mexanizmlari yaratish, axborot urushi va dezinformatsiyaga qarshi zamonaviy ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Kiber makonda shaxsning identifikatsiyasi va ijtimoiy tan olinishi Kiber makonda zo'ravonlikning yana bir falsafiy jihatini shaxsning ijtimoiy identiteti, "Men" va jamoadagi mavqei yo'qotish xavfidir. Ayniqsa, virtual muhitda "onlayn linch", "cancel culture", "doksing" kabi hodisalar axborot makonida shaxsning yoki guruhning obro'sini butunlay yo'qotib qo'yishi, uni ijtimoiy izolyatsiyaga olib kelish imkonini beradi. Men shaxsan virtual muhitda kuzatgan holatlarda, yoshlar ruhiyatidagi "qo'rquv", "ishonchsizlik", "gipere'tibor" sindromlari, "onlayn reputatsiya" uchun doimiy kurash milliy madaniyatimizga

mutlaqo xos bo'lmagan yangi ijtimoiy holatlarning paydo bo'lishini ko'rsatmoqda [F.Islomova. 2023. b. 86.].

Zamonaviy global jamiyatda axborot urushi fenomeni siyosiy, geosiyosiy va ijtimoiy boshqaruvning markaziy elementlaridan biriga aylanib bormoqda. Ushbu hodisa an'anaviy harbiy qarama-qarshiliklardan farqli ravishda, bevosita moddiy resurslar yoki hududlar uchun emas, balki axborot oqimlari va inson ongining interpretativ tuzilmalari uchun kechadigan kurash sifatida namoyon bo'ladi. Rossiyalik tadqiqotchilar, xususan I.N.Panarin, G.G.Pochepkov, A.M.Sokolov va V.L.Manilovlarning nazariy yondashuvlari bu jarayonning mohiyatini ochib berishda muhim o'rin tutadi. Ularning ilmiy qarashlarida axborot urushi zamonaviy siyosatning strategik instrumenti sifatida talqin qilinadi va u axborot-psixologik makonni boshqarish orqali amalga oshirilishi ta'kidlanadi.

Mazkur nazariy qarashlarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, axborot urushi zamonaviy jamiyatda uch asosiy darajada amal qiladi: birinchidan, geosiyosiy darajada davlatlar o'rtasidagi strategik raqobat vositasi sifatida; ikkinchidan, ijtimoiy darajada ommaviy ong va qadriyatlar tizimini shakllantirish mexanizmi sifatida; uchinchi, individual darajada kognitiv va psixologik ta'sir jarayoni sifatida. Ushbu uch daraja o'zaro bog'liq bo'lib, yagona axborot-psixologik makonni tashkil etadi. Falsafiy jihatdan bu jarayon postmodern jamiyatning asosiy xususiyatlarini aks ettiradi. Haqiqatning ko'pligi, diskurslarning raqobati va ma'no ishlab chiqarishning markaziy ahamiyati shuni ko'rsatadiki, zamonaviy jamiyatda hokimiyat nafaqat institutsional yoki iqtisodiy shaklda, balki epistemik shaklda ham mavjuddir. Ya'ni, kim axborotni boshqarsa, u nafaqat voqelikni tasvirlaydi, balki uni shakllantiradi ham. Shu bilan birga, axborot urushi fenomeni ijtimoiy barqarorlik va xavfsizlik masalalarini ham dolzarblashtiradi. Axborot oqimlarining nazoratsizligi yoki manipulyativ xarakteri jamiyatda ishonch inqirozi, qadriyatlar parchalanishi va ijtimoiy fragmentatsiya jarayonlarini kuchaytirishi mumkin. Bu esa axborot makonini boshqarish masalasini nafaqat siyosiy, balki axloqiy va madaniy muammo darajasiga olib chiqadi.

konsepsiyalarga muvofiq, kelgusida kiber mudofaa tizimi uzoq va mahalliy kiber hujumlarga va ruxsat etilmagan harakatlarga zudlik bilan javob bera oladigan, qarshi choralar haqida ma'lumot to'plash, hujumlarni aniqlash va ularga javob qaytarishga qodir bo'lgan bir-biriga bog'liq, hamda doimiy nazorat qilinadigan va ulardan himoya qilishni yaxshilash uchun foydalanuvchi tizim bo'lishi kerak.

Kiberxavfsizlikka beparvo munosabat jamiyatning ichki muvozanatiga uzoq muddatli salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Chunki axborotga nisbatan ongsiz munosabat, tekshirilmagan manbalarga ishonish, raqamli muhitda axloqiy mas'uliyatning susayishi, shaxsiy ma'lumotlar bilan ehtiyotsiz munosabatda bo'lish kabi holatlar asta-sekin ijtimoiy xatarlarga aylanadi. Masalan, bir qarashda kichik ko'ringan yolg'on xabar muayyan guruhlar orasida ishonchsizlikni kuchaytirishi, ijtimoiy keskinlikni oshirishi yoki ma'naviy qadriyatlarning

yemirilishiga olib kelishi mumkin. Shu nuqtai nazardan kiberxavfsizlik, bu profilaktik, tarbiyaviy va strategik masaladir.

Kiberxavfsizlikni ta'minlashda jamiyatda uchta muhim ustun bir vaqtning o'zida mustahkamlanishi lozim. Birinchi ustun-texnik himoya tizimi. Bu raqamli platformalar, ma'lumotlar bazalari, kommunikatsiya tarmoqlari va axborot infratuzilmasining zamonaviy texnologiyalar orqali himoyalanihini anglatadi. Ikkinchi ustun-huquqiy va institutsional mexanizmlar. Bu sohada aniq qonunchilik, mas'uliyat, monitoring va davlat siyosatining tizimli yo'lga qo'yilgani muhim. Uchinchi va eng muhim ustun-ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik. Chunki agar insonning o'zi axborotni tanqidiy baholashni bilmasa, raqamli muhitdagi xatarlarni anglamasa, texnik va huquqiy choralar ham har doim kutilgan darajada samara bermaydi. Demak, kiberxavfsizlik madaniyati jamiyat ongiga singdirilmagan ekan, barqaror raqamli muhitni to'liq shakllantirish qiyin.

Shu o'rinda alohida ta'kidlash joizki, kiberxavfsizlik va ma'naviy barqarorlik o'rtasidagi bog'liqlik eng avvalo yosh avlod misolida yaqqol ko'rinadi. Chunki yoshlar axborotni eng tez qabul qiluvchi, raqamli muhitda eng faol ishtirok etuvchi qatlam hisoblanadi. Agar ularda axborotni saralash, manbani tekshirish, yolg'on va haqiqatni farqlash, raqamli axloq qoidalariga amal qilish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayangan holda axborotni baholash ko'nikmalari shakllantirilmasa, ular turli axborot xurujlariga nisbatan himoyasiz bo'lib qoladi. Shuning uchun kiberxavfsizlik siyosati tarbiyaviy va ma'rifiy siyosatdan ajralgan holda emas, balki u bilan bir butun tizim sifatida ko'rilishi shart. Zero, kiberxavfsizlikni ta'minlashning ma'naviy o'lchamida "ma'naviy immunitet" tushunchasi markaziy o'rin tutadi.

Ma'naviy immunitet insonning yot g'oyalar, axborotiy manipulyatsiyalar, destruktiv kontent va axloqiy inqirozga olib boruvchi ta'sirlarga nisbatan ichki barqarorligi, tanqidiy qarashi va qadriyatlarga tayangan himoyasidir. Bu immunitet o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi; u ta'lim, tarbiya, oila, jamoa va ommaviy axborot muhitining maqsadli ta'siri asosida shakllanadi. Demak, kiberxavfsizlikni ta'minlashda ma'naviy tarbiya ham milliy xavfsizlikning tarkibiy qismi sifatida qaralishi kerak.

XULOSA

Kiberzo'rovonlik va kiberbulling zamonaviy axborotlashgan jamiyatning raqamli transformatsiyasi jarayonida yuzaga kelgan murakkab ijtimoiy hodisalardan biri hisoblanadi. Ular virtual makonda sodir bo'lishiga qaramay, shaxsning ruhiy holati, ijtimoiy mavqei va jamiyatdagi munosabatlariga real ta'sir ko'rsatadi. Shu jihatdan kiberzo'rovonlikni faqat texnologik yoki psixologik muammo sifatida emas, balki ijtimoiy-falsafiy va huquqiy mazmunga ega bo'lgan ijtimoiy voqelik sifatida baholash zarur. Shu bilan birga, kiberxavfsizlikni ta'minlash bugungi kunda davlat, jamiyat va shaxs oldida turgan kompleks vazifadir. Uni faqat bir sohaning muammosi sifatida emas, balki falsafiy, ijtimoiy, ma'naviy, huquqiy va texnik jihatlarni o'zaro bog'lagan holda hal etish mumkin. Agar kiberxavfsizlik masalasiga tor texnik yondashuv bilan qaralsa, u holda uning

ma'naviy va ijtimoiy oqibatlari e'tibordan chetda qolishi mumkin. Agar u faqat ma'rifiy masala sifatida talqin qilinsa, amaliy himoya mexanizmlari zaiflashadi. Shuning uchun bu sohada integrativ yondashuv eng to'g'ri va samarali yo'l hisoblanadi. Shuningdek, kiberxavfsizlikni ta'minlash. Bu zamonaviy jamiyatning barqarorligi, millatning ma'naviy daxlsizligi va davlatning istiqboldagi rivojlanishi uchun fundamental shartlardan biridir. U axborot makonidagi xavf-xatarlarni cheklash bilan birga, inson qadri, milliy qadriyatlar, ijtimoiy ishonch va ma'naviy barqarorlikni asrashga xizmat qiladi. Shu bois kiberxavfsizlikka doir siyosat, ta'lim va amaliy faoliyat doimo inson omili, axloqiy mezonlar va jamiyat barqarorligi bilan bog'liq holda yo'lga qo'yilishi kerak. Faqat shundagina kibermakon xavf manbai emas, balki taraqqiyot, ma'naviy yuksalish va ijtimoiy barqarorlik maydoniga aylanishi mumkin.

Umuman olganda, kiberzo'rovonlik va kiberbullingning ijtimoiy voqelik sifatidagi mohiyatini chuqur o'rganish nafaqat ularning kelib chiqish omillarini anglash, balki zamonaviy jamiyatda ma'naviy barqarorlik, ijtimoiy hamjihatlik va axborot xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladigan ilmiy hamda amaliy yechimlarni ishlab chiqish uchun ham muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

BIBLIOGRAFIYA

1. Касперский, Е (2018). Кибербезопасность и угрозы современности. – М.: Альпина Пабlisher, 2018, 352 с.
2. Панарин И. (2003). Информационная война и безопасность. – М: Гардарики, 2003, 549 с.
3. Федоров И.А., Лапшина Й.Н. (2020). Кибербезопасность как элемент национальной идеологии. – М.: Наука, 2020, с. 27-36.
4. Mo'minov A. (2012). Kiberzo'rovonlik va uning ijtimoiy-axloqiy oqibatlari. – Toshkent: Fan, 2012, b.16-31.
5. Ismoilova D. (2022). Axborot xavfsizligi va mafkuraviy barqarorlik masalalari. – Toshkent: Yangi asr, 2022, b. 23-38.
6. Abduqodirov A. (2021). Axborot xavfsizligi va mafkuraviy tahdidlar. – Toshkent: O'zbekiston, 2021, 338 b.
7. Turkle S. (1995). Life on the Screen: Identity in the Age of the Internet. – New York: Simon & Schuster, 1995, p.178.
8. Turkle S. (1995). Life on the Screen: Identity in the Age of the Internet. – New York: Simon & Schuster, 1995, p.178.
9. Patchin J., Hinduja S. (2022). Cyberbullying Data Report. – Cyberbullying Research Center, 2022, p.14.
10. Солдатов Г.У. (2018). Психология безопасности в интернете: теория и практика. – М.: МГУ, 2018, с. 42-46.
11. Jo'rayev N.J. (2016). Globallashuv va ma'naviy barqarorlik muammolari. – Toshkent: Fan, 2016, b.54.
12. Манойло А.В. (2003). Государственная информационная политика. – Москва, 2003, с. 62.

13. Ильин В.В. (2012). Информационная безопасность общества. – М.: Экзамен, 2012, с. 84.
14. Почепцов Г.Г. (2000). Информационные войны. – М.: Рефл-бук, 2000, с.56.
15. Bauman S., Cross D., Walker J. (2012). Principles of Cyberbullying Research: Definitions, Measures, and Methodology. – New York: Routledge, 2012, p.310.
16. Федоров И.А., Лапшина Е.Н. (2020). Кибербезопасность как элемент национальной идеологии. – М.: Наука, 2020, с.232.
17. Islomova F. (2023). Kiberhuquq va kiberxavfsizlik asoslari. – Toshkent, 2023, b. 86.

Усмонов Саидикромхужа Саидалиевич
Доктор философии (PhD) по философским наукам
Самостоятельный соискатель Национального
университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека
e-mail: usmonovsaidikromxoja@gmail.com

СУЩНОСТЬ КИБЕРНАСИЛИЯ И КИБЕРБУЛЛИНГА КАК ОБЩЕСТВЕННОЙ РЕАЛЬНОСТИ

Аннотация. В современных условиях кибернасилие и кибербуллинг представляют собой социальную реальность, формирующуюся в условиях информационного общества. Они являются следствием широкого распространения цифровых технологий и социальных сетей, порождающих различные формы виртуального насилия, а также факторов их возникновения и их воздействия на личность, особенно на психическое состояние молодежи и систему социальных отношений. В данном контексте особое значение приобретают социально-психологические, правовые и духовно-нравственные аспекты кибербуллинга, его негативные последствия для общества, а также эффективные механизмы его предупреждения и противодействия. В связи с этим в статье анализируются сущность кибернасилия и кибербуллинга как социальной реальности, а также приоритетные направления борьбы с кибернасилием посредством обеспечения информационной безопасности и повышения духовной и правовой грамотности молодежи.

Ключевые слова: кибернасилие, кибербуллинг, эволюция киберугроз, информационная война, идеологическое воздействие, информационная безопасность, информационная среда, виртуальная среда.

Usmonov Saidikromkhoja Saidalievich
Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophy
Independent Researcher National University
of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
e-mail: usmonovsaidikromxoja@gmail.com

THE ESSENCE OF CYBER VIOLENCE AND CYBERBULLYING AS A SOCIAL REALITY

Abstract. In the contemporary era, cyber violence and cyberbullying have emerged as a social reality within the information society. They are the result of the widespread use of digital technologies and social media, giving rise to various forms of virtual violence, as well as factors contributing to their emergence and their impact on individuals, particularly on the psychological well-being of young people and the system of social relations. In this context, the socio-psychological, legal, and moral dimensions of cyberbullying, its negative consequences for society, and effective mechanisms for its prevention and counteraction have become increasingly significant. Accordingly, this article analyzes the essence of cyber violence and cyberbullying as a social reality and examines the priority directions for combating cyber violence through ensuring information security and enhancing the moral and legal literacy of young people.

Keywords: cyber violence, cyberbullying, evolution of cyber threats, information warfare, ideological influence, information security, information environment, virtual environment.

